



**BADIIY ASARLARNI QIYOSLAB O'RGANISH (XAYRIDDIN SULTON
VA VASILIIY SHUKSHIN ASARI MISOLIDA)**

**Jizzax shahar 26-umumta'lim maktabi Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Tojiboyeva Maxliyo Baxriddin qizi**

Annotatsiya. Maqolada qiyosiy-tarixiy metodning o'ziga xos ilmiy jihatlarini, qiyoslashning paydo bo'lishi, bugungi kunda qo'llanilishi masalalari yoritilgan. Qiyosiy metod orqali tahlil qilinganda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar keltirilgan. Xayriddin Sulton va Vasiliy Shukshinning sujet hamda kompozitsiyasi o'xshash bo'lgan ikki asari qiyosiy tahlil qilingan.

Абстрактный. В статье описаны специфические научные аспекты сравнительно-исторического метода, возникновение сравнения и его использование в наши дни. Приведены аспекты, на которые следует обратить внимание при анализе сравнительным методом. Сравнительно анализируются два близких по сюжету и композиции произведения Хайриiddина Султана и Василия Шукшина.

Abstract. The article describes the specific scientific aspects of the comparative-historical method, the emergence of comparison, and its use today. Aspects that should be paid attention to when analyzed by the comparative method are given. Two works of Khayriddin Sultan and Vasiliy Shukshin with similar subject and composition are comparatively analyzed.

Kalit so'zlar. O'xshashlik, qiyosiy-tarixiy metod, komparativistika, jahon adabiyoti, sujet, motiv, badiiy tasvir, makon va zamon.

Ключевые слова. Аналогия, сравнительно-исторический метод, компаративистика, мировая литература, сюжет, мотив, художественный образ, пространство и время.

Key words. Analogy, comparative-historical method, comparativistics, world literature, subject, motif, artistic image, space and time.

“Qiyosiy metod – fanning turli sohalarida, jumladan, adabiyotshunoslikda ham keng qo'llanuvchi tadqiqot usuli. Ushbu usul mohiyati ikki yoki undan ortiq narsa-





hodisalarni o‘zaro qiyoslab, ularning o‘xshash hamda farqli tomonlari, bularni keltirib chiqargan omillarni aniqlash orqali umumlashmalar chiqarishdan iboratdir”[1; 380].

Birinchi navbatda, umuman, adabiyotni, xususan, jahon adabiyotini qiyosiy o‘rganish yoki adabiyotshunoslikda komparativistika tushunchasining mohiyatini aniqlash zarurdir. Badiiy adabiyotni qiyosiy-tarixiy tekshirish aspekti yoki komparativistika XIX asrning boshlarida paydo bo‘lgan. Komparativistika “solishtirish”, “qiyoslash” ma’nolarini anglatuvchi lotincha comparativus so‘zidan olingan bo‘lib, badiiy asarni solishtirib o‘rganish yoki turli milliy adabiyotlar o‘rtasidagi o‘xshash hamda farqli jihatlar, ularning ildizlarini tekshirishga diqqat qaratilishini anglatadi. Komparativistika xalqaro adabiy aloqalarni o‘rganish va adabiy ta’sirlar zamiridagi qonuniyatni ochishga qaratilgan ilmdir.[2;116]

Asarning sujeti va kompozitsiyasi, asar tili, motivlar, tarjima, asar poetikasi, yozuvchi mahorati, bir xalqning boshqa bir xalq adabiyoti haqidagi qarashlarini qiyosiy adabiyotshunoslik o‘rganadi. Bundan tashqari aynan bir asar ustida kechgan olimlarning turlicha qarashlarini, xalqaro adabiy aloqalar, o‘zaro ta’sir, an’anaviylik va novatorlik, musiqa, rassomchilik, haykaltaroshlik, kinoning so‘z san’atiga ta’siri kabi masalalarni ham qiyosiy o‘rganish mumkin.

Qiyosiy tahlilning gnoseologik, mantiqiy, metodologik, metodik, akseologik kabi vazifalari mavjud. Qiyosiy tahlil amalga oshayotgan jarayonda ana shu bosqichlardan o‘tiladi.

Qiyoslash obyektlari haqida yangi bilim va ko‘nikmalar orttirish qiyosiy tahlilning gnoseologik vazifasi mohiyatini tashkil qiladi.


Gnoseologik vazifaning aniq natijalari ham ko‘rsatilgan:

- Qiyosiy tahlil jarayonida taqqoslanadigan obyekt haqida yangi ma’lumot va bilimga ega bo‘lish;

- Qiyoslanadigan adabiy hodisalarning o‘zaro ta’siri haqida yangi tushunchalar hosil qilish;

- Taqqoslash jarayoni, ya’ni obyektlarni qiyoslash jarayoni yetarli darajada to‘liq va aniq bo‘lsa, unda ularning o‘tmishi, buguni, kelajagi haqida umumiy tasavvur hosil qilamiz.

Qiyosiy tahlil jarayonida mantiqiy qonun-qoidalarga binoan ish ko‘rish, mantiq talablaridan uzoqlashmaslik qiyosiy tahlilning mantiqiy vazifasidir.





Mantiqiy vazifaning amalga oshishi uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi:

- Turli xil asosga ega adabiy hodisalarni taqqoslash mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Ko'pincha adabiy hodisalarni qiyosiy tahlil etish uchun turli asoslar tanlanadi. Bu hol yuz berganda qiyoslash jarayoni o'zining aniqligini yo'qotadi. U ko'p jihatdan predmetsiz, demak, samarasiz bo'lib qoladi. Qiyoslash uchun aniq asos bo'lishi kerak. To'g'ri kelgan holatni boshqasi bilan qiyoslab bo'lmaydi. Sujetni sujet bilan, asar tilini boshqa bir asar tili bilan qiyoslash mantiqqa to'g'ri keladi;

- Obyektlarga aloqasi bo'lmagan ma'lum bir vaziyatlar tahlildan olib tashlanmasa, kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi.

Qiyoslash jarayonida ziddiyatlarga, qarama-qarshiliklarga uchrash mumkin. Hatto o'ta qarama-qarshi bo'lgan personajlarda ham, albatta, mantiqqa zid bo'lmagan umumiy tomonlar topiladi.

Adabiyotlar o'rtasidagi o'xshashliklarda xalqlar bosib o'tadigan tarixiy yo'ldagi umumiylikdan tashqari, xalqaro adabiy aloqa va o'zaro adabiy ta'sirlarning ham muhim o'рни bor. Ammo xalqaro adabiy aloqa va o'zaro adabiy ta'sirning yuzaga kelishi uchun u yoki bu xalqda ana shu xil badiiy aloqaga ichki ehtiyoj paydo bo'lishi kerak.

Badiiy asar qiyosiy o'rgatilganda matndagi o'ziga xos va qaytarilmas jihatlarni topib o'quvchilarga sezdirish, adabiy hodisalar o'rtasidagi o'xshashliklarni aniqlash va qayd etish muhim sanaladi.

Qiyosiy-tarixiy metod adabiy hodisalarning umumiy va xos tomonlarini tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan bog'liqlikda qiyoslash usulidir. Qiyosiy-tarixiy metod asosidagi ilk nazariy fikrlar Arastuning "Poetika" asarida bayon qilingan. Faylasuf adabiyotni epos, lirika, drama kabi uch turga ajratish jarayonida ularni qiyoslaydi va mohiyatini tushuntirib beradi.

Qiyosiy-tarixiy metod haqida ilmiy adabiyotlarda juda ko'plab nazariy fikrlar bayon qilingan. Jumladan, adabiyotshunos B.Karimov qiyosiy-tarixiy metoddan foydalanib, quyidagi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot olib borish mumkinligini ta'kidlaydi:

— dunyo adabiyoti durdonalari yoki milliy adabiyotning go'zal namunalari o'zaro qiyoslanadi;

— adabiy asarlar yaratilgan davriga ko'ra taqqoslab o'rganiladi;





- bir milliy adabiyot vakillarining qiyos uchun asosli asarlari o‘rganiladi;
- milliy adabiyot namunalari dunyo adabiyoti kontekstida tekshiriladi;
- adabiy jarayon yoki adabiyot tarixida mavjud adabiy hodisalarning farqli va o‘xshash qirralari tadqiq qilinadi;
- mavzu yoki ilmiy muammo nuqtayi nazaridan o‘zaro yaqin bo‘lgan adiblarning asarlari tekshiriladi;
- adabiy-estetik evolyutsiyani kuzatishda ma’lum bir adib tomonidan yozilgan asarlar obyekt qilib olinadi.[3;87]

Adabiy asarlarni qiyoslab o‘rganish fikri 19-asr boshlarida nemis shoiri Gyote tomonidan bildirilgan bo‘lib, 1827-yilda yozgan “German romanslari” nomli maqolasida birinchi marta “jahon adabiyoti” atamasini qo‘llaydi. Uning fikricha, jahondagi bir adabiyot chegarani tan olmaydi, har qanday millat tomonidan yaratilgan har bitta qimmatli adabiy qadriyat, adabiy manba insonning ruhini boyitadi, millatidan qat’i nazar har qanday odamda ezgu ma’naviy sifatlar shakllantirishga xizmat qiladi.

Keyinchalik XX asrning boshlarida Konrad, Jirmunskiy, Propp va boshqalar ilmiy ishlarida komparativistikadan keng foydalanishgan. Ular sujet va motivlarning o‘xshashligini faqat badiiy o‘zlashtirish natijasi deb emas, balki tipologik xususiyatlarga ham bog‘liq deya hisoblashgan. O‘xshash obrazlar, sujetlar, milliy badiiy tasvirning o‘ziga xosligi bilan bog‘liq ayrim belgilar xalqlarning turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy hayoti, tarixi, ijtimoiy vaziyatlar o‘xshashligi natijasida bir-biridan mustaqil ravishda bir tipdagi badiiy yuksak asarlar paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin degan xulosani ilgari suradilar.

O‘xshash ijtimoiy, siyosiy, madaniy muhitda yashagan xalqlarning tarixi, turmushida bo‘lgani kabi badiiy so‘z san’atida ham o‘xshash obrazlar, sujetlar va motivlar uchrashini tabiiy hol deb qarash o‘rinli sanaladi.

Qiyosiy metodda milliy adabiyotlardagi o‘xshashliklarni adabiyotlari qiyoslanayotgan xalqlar tarixining yaqinligi va ularning ijtimoiy taraqqiyotida umumiylik borligining natijasidir. Bir janrda yaratilgan, bir ijtimoiy muhitni yoritgan, qahramonlarida ham umumiylik bo‘lgan asarlarni qiyoslash asosida ularning sujet voqealari, adabiy qahramonlarining ruhiy olami, xarakter xususiyatlari va motivlaridagi o‘xshashlik masalalari yotadi. Qolaversa, qiyosiy metod orqali badiiy asarni tahlil asnosida ajdodlarning umumiy tarixini o‘rganishga qiziqish uyg‘otish, umuminsoniy





munosabatlar xususida yaxlit tasavvur hosil qilish ham mumkin. Aytaylik, bir xil mavzuda yaratilgan bir nechta xalqlar adabiyotini olsak, bunda g'oyalar, fikrlar, munosabatlar turlicha bo'lishi mumkin. Lekin ularni birlashtiruvchi bir qancha jihatlarni topish mumkin. Qaysidir asar qahramonlarining tipologik ekanligi bilan, yana qaysidir asar ijtimoiy muhit bir xilligi bilan umumiylik kasb etadi.

Xayriddin Sultonning "Ko'ngil ozodadir" qissasi bor. Qissani o'qiganimizda, bosh qahramon alohida bir dunyo, olam ekanligiga amin bo'lamiz. Chunki u o'tmish bilan – Muhammadsharif Gulxaniy bilan g'oyibona suhbat quradi. Nafaqat suhbat quradi, uni o'zining eng yaqin insoni deb hisoblaydi. Ijara xonadonida yashovchi teng huquqli a'zosi deydi. Gulxaniyning "Zarbulmasal"ida keltirilgan qushlarni ham o'ziga do'st deydi va ular bilan ham bir oshiyonda yashaydi. Albatta, bu muallifning badiiy topilmasi. Asar orqali Xayriddin Sulton o'tmish va bugungi kunni bog'lab turuvchi bir qancha rishtalar – odamgarchilik, ezgulik, mehr-oqibat haqida aytmoqchi. Xuddi shunday sujet chizig'ini rus adibi Vasiliy Shukshinning "Xo'roz uch bor qichqirguncha" asarida ham ko'ramiz. To'g'ri, adibimiz Xayriddin Sulton asar g'oyasini Shukshindan ko'chirgan degan fikrdan yiroqmiz. Faqatgina har ikkala asardagi ma'lum jihatlardagi o'xshashliklarni qiyosiy tahlil qilishga urinamiz, xolos. "Xo'roz uch bor qichqirguncha"da kutubxonadagi rus mumtoz adabiyotining namunalari va ulardagi qahramonlar o'zaro suhbatlashishadi. Qachonki, dastlab kutubxonachi ayolning telefondagi suhbatidan so'ng: " – Ha-a, yo'q, - dedi kutubxonachi, - menimcha, bu tarix. U mol-ku... Yaxshisi, dikirlashga boramiz. Nima? Yo'q, u mol-ku axir. Mazza qilib dikirlashamiz, shundaymi? Keyin Vladikning yoniga boramiz... Uning eshakligini bilaman, biroq unikida "Gryundik bor – o'tirishamiz... Tyulen ham keladi, keyin... anavi... ukki ham bo'ladi. Bilaman, bilaman, ularning hammasi mol ekanini, biroq vaqtni o'tkazish kerak-ku! Xo'sh, xo'sh... eshitaman..."[5;113-114]

"Aqlim battar shoshdi. Aftidan, o'zimning ijara oshiyonimga o'xshaydi, lekin... Agar shu vaqt ichkaridan gulduragan yo'g'on tovush eshitilmaganda, bilmadim, qay paytgacha eshik ortida besar turar ekanman. "Shadyar! – deb qichqirdi allakim. – Mana buni qayerga qo'yaylik?" Shundagina miyamga fikr yuritmoq iqtidori qaytadan ato bo'ldi. Shodiyor! Demak, ko'chib kelibdi-da".[4;114]





“Xo‘roz uch bor qichqirguncha”da kitob qahramonlari kutubxonachi ayolning suhbatidan hayratga tushishadi va o‘zaro muhokama ham qilishadi. Kutubxonachining suhbatidan kim bilandir hayvonot bog‘iga borishmoqchi ekanligini aytishsa, yana biri uning hammani mol deyishiga hayratlanadi. Shundan so‘ng kutubxonachi ketadi va rus adabiyoti qahramonlari birma-bir javonlardan tushib kelishadi.

“Ko‘ngil ozodadir” qissasida esa asar sujeti biroz farq qiladi. Unda bosh qahramon G‘ulom va Gulxaniyning suhbatida asar davomida berib boriladi. G‘ulom u bilan faqat qalb ko‘zi va dil qulog‘i (Gulxaniy G‘ulom bilan bo‘lgan suhbatda bu haqda aytadi – ta’kid bizniki H.Z) orqali suhbat qiladi. Gulxaniy haqida boshqalar bilishsa, albatta, uni masxara qilishar, telba deya nom berishar edi.

“Konkret asarni o‘tmishda yoki u bilan bir paytda, boshqa milliy adabiyotda yoki o‘zi mansub adabiyotda yaratilgan asar bilan qiyosan tadqiq etish mumkin. Qiyoslash obyekti tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Deylik, asarni o‘tmishda yaratilgan asar bilan qiyoslash undagi an‘ana va yangilik nisbati, ayrim badiiy unsurlar genezisi haqida tasavvur hosil qilish imkonini yaratadi; boshqa milliy adabiyot vakili bilan qiyoslash orqali adabiy aloqa va ta’sir, milliy adabiyotlar rivojida tipologik umumiylik kabi masalalarni o‘rganishga keng imkoniyat yaratiladi. Misol uchun, Navoiy va Nizomiy “Xamsa” larini qiyosiy tahlil qilish asosida har ikki asarning poetik o‘ziga xosligi, sujet motivlaridagi o‘xshash va farqli jihatlar, bu farqlarni yuzaga keltirgan omillar, dunyoqarashlaridagi mushtarak va farqli jihatlarni anglash, pirovardida Navoiy dahosini xolis baholash imkonini yaratadi”[6;466].

Darhaqiqat, qiyoslanadigan asarlarda tarixiylik, an‘anaviylik, adabiy aloqalar masalasiga jiddiy e’tibor beriladi.

Har ikkala asarni kuzatish va qiyoslash davomida mualliflarning badiiy topilmasiga tan bermasdan iloj yo‘q. Turli xalqlar bo‘lishiga qaramasdan, ruhiyat bilan bog‘liq motivning umumiyliqi asarlar saviyasini oshira olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2010, - B 380
2. Yo‘ldoshev Q., Yusupov J. Badiiy tahlil asoslari. – Urganch: UrDU noshirlik bo‘limi, 2008. – 116-bet





3. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. — Toshkent: Muharrir, 2011. — 87 b
4. Xayriddin Sulton. Yo‘qchilik va to‘qchilik. Hikoyalar, qissa, tarjima. T.: “Ma’naviyat” 2000, 114-bet
5. Vasiliy Shukshin. Xo‘roz uch bor qichqirguncha. Jahon adabiyoti jurnali. 2021/1 (284) son. 113-114 betlar
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018, 466-bet

